

**OILADA TARBIYA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIKNING
ZAMONAVIY YO'NALISHLARI**

Rahimova Hosila Mustafo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika nstituti talabasi

Numonova Hulkar Naim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan oila va mакtabning bola tarbiyasidagi hamkorligi muhim ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ota-onalar va mакtab o'rtasidagi munosabatlar, ular orasidagi pedagogik muloqot, axborot texnologiyalari asosidagi hamkorlik shakllari, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida samarali yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Maqola oilaviy tarbiyaning mакtab tarbiyasi bilan uyg'unlashuvi natijasida barkamol shaxsni tarbiyalashga olib kelishini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, oila, tarbiya, mакtab, hamkorlik, innovatsiya, raqamlı ta'lim, muloqot, bolalar psixologiyasi, tarbiyaviy muhit.

Abstract: This article analyzes the cooperation of family and school in raising a child from the point of view of modern pedagogy as an important social phenomenon. The relationship between parents and school, pedagogical communication between them, forms of cooperation based on information technologies, as well as effective approaches based on international experience are considered. The article substantiates that the combination of family education with school education leads to the upbringing of a well-rounded person.

Keywords: Pedagogy, family, education, school, cooperation, innovation, digital education, communication, child psychology, educational environment.

Аннотация: В статье анализируется сотрудничество семьи и школы в воспитании детей как важное социальное явление с точки зрения

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

современной педагогики. Рассмотрены взаимоотношения родителей и школы, педагогический диалог между ними, формы сотрудничества на основе информационных технологий, а также эффективные подходы, основанные на международном опыте. В статье утверждается, что сочетание семейного воспитания со школьным приводит к воспитанию всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: Педагогика, семья, воспитание, школа, сотрудничество, инновации, цифровое образование, коммуникация, детская психология, образовательная среда.

Kirish: XXI asrda ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashdir. Bu jarayonda maktab va oila muhim ijtimoiy institutlar sifatida bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘un hamkorlikda ishlovchi tizim bo‘lishi kerak. Farzandning shaxs sifatida shakllanishi — bu faqat maktab emas, balki eng avvalo oilaning ham javobgarligidir.

Oila va maktab o‘rtasidagi aloqaning darajasi, doimiyligi, ochiqligi va samimiyligi bolaning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va fe’l-atvorini belgilaydi. Ilgari bu aloqa asosan ota-onalar yig‘ilishlari, shaxsiy suhbatlar orqali amalgalashdir. Ota-onalar bolani sevadi, unga yaqin; maktab esa uni intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllantiradi. Bolaga berilayotgan tarbiya uyg‘un va mos bo‘lishi uchun, oilaviy qadriyatlar mакtabda davom etishi kerak. Masalan, agar ota-onan bolani halollikka o‘rgatsa, maktabda bu prinsip mustahkamlanishi kerak. Aks holda, bola ikki xil mezonli muhitda shakllanadi va

Oila va maktab hamkorligining psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogika fanida bolaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy ijtimoiy muhitlar ichida oila va maktab birinchi o‘rinda turadi. V.A. Suxomlinskiy ta’kidlaganidek, “tarbiya – bu yurakdan yurakka o‘tadigan murakkab san’atdir”, va bu san’atda ota-onan ham, o‘qituvchi ham teng ishtirokchilardir. Ota-onalar bolani sevadi, unga yaqin; maktab esa uni intellektual va ijtimoiy jihatdan shakllantiradi. Bolaga berilayotgan tarbiya uyg‘un va mos bo‘lishi uchun, oilaviy qadriyatlar mакtabda davom etishi kerak. Masalan, agar ota-onan bolani halollikka o‘rgatsa, maktabda bu prinsip mustahkamlanishi kerak. Aks holda, bola ikki xil mezonli muhitda shakllanadi va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bu unda ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli vositalar asosidagi hamkorlik. Bugungi kunda ota-onalar va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirishda quyidagi zamonaviy vositalar va yondashuvlar qo‘llanilmoqda:

- Onlayn aloqa platformalari: ClassDojo, Google Classroom va boshqalar orqali o‘quvchilar holati haqida doimiy ma’lumot almashish.
- Elektron kundaliklar (masalan, my.maktab.uz): o‘quvchilarning baholari, uy vazifalari va intizomi haqidagi ma’lumotlar ota-onalarga ochiq ko‘rinadi.
- Masofaviy maslahatlar va treninglar: Psixologlar, pedagoglar ishtirokida vebinarlar, ota-onalar uchun tarbiyaviy treninglar tashkil etish.
- Feedback mexanizmlari: ota-onalardan maktab faoliyati bo‘yicha fikrlar olish (so‘rovnomalar, onlayn forumlar).

Bu yondashuvlar ota-onani passiv tomoshabindan faol hamkorga aylantiradi, bu esa bola rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hamkorlikda tarbiya o‘zbek va xorijiy tajriba maktablarda “Ota-onalar kuni”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Tarbiyaviy suhbatlar” amaliyatga kiritilgan. Prezident qarorlari bilan maktab va oilaviy tarbiyani uyg‘unlashtirishga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy holati og‘ir oilalar farzandlari bilan individual ishslash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Finlyandiya tajribasi: Finlyandiya maktablarida “Ota-onalar ishonchli do‘sti” deb nomlangan dastur mavjud bo‘lib, bu orqali har bir ota-ona bola tarbiyasi bo‘yicha doimiy tarzda maktab bilan bog‘lanib turadi. Barcha sinflarda onlayn platformalar orqali real vaqtda kuzatuv olib boriladi.

Yaponiya tajribasi: Yaponiyada bolalarning ijtimoiy madaniyatini shakllantirishda ota-onalar ishtiroki yuqori. Maktabgacha ta’limdan boshlab ota-onalarning har haftalik darslarga ishtiroki, uy vazifalarini birgalikda bajarish, maktabdagi jamoaviy ishlar hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

4. Hamkorlikda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Quyidagi holatlar hamkorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ota-onalarning maktabga befarqligi;
Maktabning ota-onalarga nisbatan loqayd munosabati;
Texnologik vositalardan foydalanish ko‘nikmasining pastligi;
Tarbiyadagi qarashlar ziddiyati (masalan, oila yengillik tarafdori, mакtab esa qat’iy tartib tarafdori).

Tavsiya etiladigan yechimlar:

Pedagogik maslahat markazlarini rivojlantirish;
Har oyda individual ota-on-a-pedagog uchrashuvlari tashkil qilish;
Tarbiyaviy birlik dasturlarini ishlab chiqish (masalan: “Birgalikda o‘stiramiz!”);

Mass-media va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarbiyaviy videoroliklar, tavsiyalar berib borish.

5. Oila va mакtab hamkorligida sinf rahbarining roli

Sinf rahbari — bu faqat sinfdagi tartib-intizomni kuzatuvchi emas, balki o‘quvchi, ota-on-a va pedagoglar o‘rtasidagi asosiy ko‘prik vazifasini bajaruvchi shaxsdir. Uning faoliyati quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Individuallashtirilgan yondashuv: Har bir o‘quvchi va uning oilaviy muhitini chuqur o‘rganish orqali aniq pedagogik yondashuv tanlanadi.

Tarbiyaviy rejalashtirish: Sinfda o‘tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar (vatanparvarlik, ekologik, huquqiy, madaniy) ota-onalar ishtirokida rejalashtiriladi.

Ishonchli muloqot: Ota-onalarga bolaning ruhiy holati, qiziqishlari, muammolari haqida doimiy, ehtiyyotkorlik bilan axborot berish orqali ishonchli munosabatlar o‘rnataladi.

Oraliq monitoring: Bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va bu haqda ota-onalarni xabardor qilish orqali hamkorlikda tuzatishlar kiritiladi. Masalan, o‘quvchining darsga qiziqishi pasaygan bo‘lsa, sinf rahbari bu holatni birinchi bo‘lib sezadi va ota-on-a bilan maslahatlashgan holda muammoni hal qilishga kirishadi. Demak, sinf rahbari faqat tashkilotchi emas, balki tarbiyaviy jarayonning strategik boshqaruvchisi hamdir.

6. Kelajak uchun taklif va tavsiyalar. Kelajakda oila va mакtab o‘rtasidagi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hamkorlikni yanada samarali qilish uchun quyidagi tizimli yondashuvlarni joriy etish taklif etiladi:

1. "Oila va maktab" integratsiyalashgan platformasi – bu onlayn tizimda bolaning o‘qishi, tarbiyasi, ruhiy holati haqida barcha ma’lumotlar to‘planadi va ota-onalar pedagoglar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘lishadi.
2. "Pedagogik sheriklik kelishuvi" – o‘quv yili boshida ota-onas, o‘qituvchi va sinf rahbari o‘zaro majburiyat va javobgarlikni belgilovchi rasmiy memorandum tuzadi.
3. Tarbiyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari – ota-onalar uchun zamonaviy tarbiya bo‘yicha bepul kurslar, seminarlar, onlayn treninglar tashkil etish.
4. Maktab-psixologik maslahat markazlari – har bir maktabda psixologik yordam ko‘rsatish guruhi bo‘lib, ular ota-onalar bilan individual ishlaydi.
5. Milliy va xalqaro tajriba almashinuvi – ilg‘or xorijiy maktablar bilan ota-onas ishtirokidagi onlayn konferensiyalar, vebinlarlar o‘tkaziladi.

Bu kabi innovatsion va tizimli yondashuvlar o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, oilaviy tarbiya va maktab o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlaydi va natijada zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan sog‘lom avlod voyaga yetadi.

Oilada tarbiya va maktab o‘rtasidagi hamkorlik zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas bo‘g‘inidir. Har ikki institutning o‘zaro ishonchli, tizimli va doimiy hamkorligi bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali bu hamkorlikni yanada samarali qilish mumkin. Shu bois, pedagoglar va ota-onalarning birgalikda ishlashi mustahkam jamiyat va sog‘lom kelajak uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanboyeva M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: TDPU, 2019.
2. Qurbonov M. Oila pedagogikasi. – Samarqand: SamDU, 2021.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3. Karimova D. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2022.
4. Suxomlinskiy V.A. Seryo g‘amxo‘rlik bilan tarbiya qilish. – Moskva: Pedagogika, 1980.
5. G‘ofurov A., Rajabov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
6. UNESCO. Family and School Partnership for Inclusive Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
7. Ministry of Education, Finland. Parent Collaboration Guide. – Helsinki, 2019.
8. Okazaki H. Parental Involvement in Japanese Schools. – Tokyo: JICA Education Series, 2018.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4884-son. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida. – 2020-yil 14-avgust.
10. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti: www.maktab.uz